

TIL VA TAHRIR MAHORATI

Dilfuza TESHABAYEVA

*Filologiya fanlari doktori, professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya. *Til va madaniyat fenomenlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi masalani o'rganish, ko'p holatlarda murakkab, ko'pqirrali, ko'p qiyofali ijtimoiy hodisalar sirasiga kiruvchi madaniyat tushunchasining aniq ta'rifi yo'qligi sababli qiyinlashgan. Tahrir mahoratida tilning o'rni beqiyosdir.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, til, lingvistika, tahrir mahorati, media, leksika, xatolik.*

“Madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida muayyan odamlar jamoasi tomonidan to'plangan va to'planib kelinayotgan moddiy- ma'naviy qadriyatlar majmui, jamoa ijtimoiy faolligi mahsuli: u tarixiy genezisga ega va alohida shaxsning shakllanishida muhim rol o'ynaydi”⁷. Madaniyatli bo'lish – *amal qila olish* demakdir. Madaniyatlik bu – hayotga nisbatan passiv moslashishdir. Madaniy izlanishning yuksalishi, bu – *tashqaridagini o'ziga qabul qila oladigan, lekin o'ziga xosligi bilan qarshilik ko'rsatadigan, o'zining dunyosini yaratish* demakdir⁸.

Til (so'zlashuv faoliyati) umumiy mulk bo'lishi bilan birga, belgilovchi sistemaning hamma ifodalab bo'lmaydigan belgilarini tushunish, izohlash va ularning maqsadini belgilashni ta'minlaydi. Bunda tilning jamoa intellektining shakllanishidagi ahamiyatini ko'rishimiz mumkin.

“Til madaniyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U ijtimoiy meros qilib olingan hayot tarzimizni belgilovchi amaliy ko'rinish va g'oyalar to'plami”dan iborat ekanligi F.V. Humboldt tomonidan qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan⁹. Til, nutq va madaniyat insonsiz mavjud bo'lmaganidek, ularsiz insonning o'zini ham tasavvur etish mumkin emas. Til – bilim va fikrlashda eng muhim qurol. Til individning ijtimoiylashuvida zarur, shart va vosita, u individlarning birgalikdagi faoliyati davomida paydo bo'ladi, usiz madaniyat, ijtimoiy meyor va qoidalarni o'zlashtirib bo'lmaydi, usiz

⁷Верещагин Е. М., Костомаров Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Метод, руковод. - 4-е изд., перераб. и доп. –М.: Русский язык, 1990. –С. 18.

⁸ Ильенков Э. В. Философия и культура: Мыслители XX века. Ильенков. – М.: Наука, 1991. – С. 86.

⁹ Гумбольдт В. Фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. -С. 193.

insonning o'zini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Agar jamiyat muloqotsiz yasholmaydigan, til orqali o'z fikrlarini ifodalaydigan kishilardan tarkib topgan bo'lsa, tillarning paydo bo'lishi va ishlatilishiga doir dastlabki shart-sharoitlar faqat umumiy faoliyat orqali birlashgan jamoaning ijtimoiy guruhidagina paydo bo'lishi mumkin.

Til tizimining darajalari ichida leksika (kulturologik nuqtai nazardan ham) muhim ahamiyatga ega. U inson atrofidagi borliqni va uning ichki dunyosini ifoda etadi, tasvirlaydi hamda til egasining xatti-xarakatini belgilagan holda, unga turtki berishi mumkin. Milliy tilning lug'at tarkibi etnosotsiomadaniy normalarning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolib, avloddan avlodga yetkazadi va shu yo'l bilan etnik mentalitetning barqarorligi, izchilligini ta'minlaydi. So'zlar ishlatilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, millatning ma'naviy sog'lomligi haqida ma'lumot olishimiz mumkin: faktlarga to'g'ri baho berish, ularning ketma-ketligini saqlagan holda ro'yxatga olish, dinamika yo'nalishini aniqlash yo'li bilan bir qancha darajada, ushbu millatning rivojlanish bosqichlarini oldindan ko'ra olishimiz mumkin.

“Til sistema sifatida yangiliklarni tezkor ravishda ifodalab berish uchun juda qiyin vosita hamda yetarli darajada sezuvchan emas. Vaholanki, ushbu yangiliklar ifodalanishi o'zgartirish kiritayotganlarning ongida darhol amalga oshiriladi”¹⁰.

Olimlarning til meyorlari va qoidalarining muayyan darajada voqelikni ifodalashi va uni “shakllantirish”i haqidagi xulosasi hozirga qadar ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan:

– birinchidan, til bu – jamiyat mahsuli, u insonni bolaligidan tarbiyalab kelayotgan va fikrlashga chorlayotgan lingvistik sistemani o'zida ifoda etadi. Ushbu sistemada odamlar muayyan voqea va narsalarni o'z so'zlash qobiliyati va o'z jamiyatining meyorlariga qarab anglab oladilar;

– ikkinchidan, har bir til yashash sharoiti, ijtimoiy va madaniy muhitiga qarab, har xil guruhlar, har xil til sistemasiga ega bo'lishi mumkin. Har bir til turli dunyoqarashni ifoda etadi.

¹⁰ Тарасов Б. Ф. Язык как средство трансляции культуры. – М.: Наука, 2000. - С. 90.

Tilning fikr yaratish va ifodalash funksiyasi til strukturasining tafakkur, fikrlash kategoriyalari bilan bog‘liqligi orqali aniqlanadi. Humboldt aytganidek, til doimo fikrga hamroh bo‘lishi kerak, fikr ham tildan ortda qolmasdan, uning bir unsuridan keyingisiga yetib olishi va tilda uning bog‘liqligini ta’minlovchi barcha narsalar orqali o‘z ifodasini topishi lozim¹¹. Yaxshi nutq fikr bayonining aniqligi, tushunarligi, mantiqiy ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar tahrir mahorati uchun juda zaruriy qism hisoblanadi.

Tilshunoslik tajribasi va uslubiy tajriba tahrir uchun samarali usuldir. Ular mulohazalar talqinlarini tuzishda, salbiy til materialmi aniqlashda. Matnni tahlil qilishda uning vazifasini belgilashda va muharrir tuzatishlari usulini asoslashda ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanish imkonini beradi. Matnni filologik nuqtai nazardan an’anaviy tahlil qilish va tahrir amaliyoti xususida bir oz to‘xtalib o‘tamiz. Til yordamida murakkab ma’lumotlarni inson tomonidan qayta ishlash jarayonini o‘rganib tahrir amaliyotidagi mavjud matn tahlili usullarini tushunishga yordam beradi. lingvistik tajribada grammatik sinonimlar, ya’ni grammatik ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar, iboralar va so‘z birikmalari o‘rganiladi va qiyoslanadi. Shu yo‘l bilan oddiy nazar tashlab ilg‘ab bo‘lmaydigan ma’nolar orasidagi nozik farq aniqlanadi.

Umuman aytganda, adabiy tahrir uslubiyat bilan bog‘liq. Bunday tahlil ega va kesimning to‘g‘ri joylashtirilishi, ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘rni, so‘z qo‘llash mahorati, tasviriy vositalarning mazmun mohiyatini anglash kabilar haqidagi bilimlarni anglash va o‘z o‘rnida qo‘llashni nazarda tutadi. Tilning nozikligini his qilish maharrirdan juda katta mahorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vereshagin Ye. M., Kostomarov G. Yazik i kultura: Lingvostranovedeniye v prepodavanii russkogo yazika kak inostrannogo. Metod, rukovod. - 4-ye izd., pererab. i dop. –M.: Russkiy yazik, 1990.
2. Ilyenkov E. V. Filosofiya i kultura: Misliteli XX veka. Ilyenkov. – M.: Nauka, 1991.
3. Gumboldt V. Fon. Izbranniye trudi po yazikoznaniyu. – M.: Progress, 1984.

¹¹ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С. 318 .

4. Tarasov B. F. Yazik kak sredstvo translyatsii kulturi. – M.: Nauka, 2000.
5. Teshaboeva, D. M. Ommavij ahborot vositalari tilining nutk madaniyati aspektida tadkiki (ЎzR OAV misolida): Filol. fan. dok.. dis. avtoref. (2012).
6. Дадабаева Х., & Тешабаева, Д. (2024). Роль акта в формировании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам курсантов военного образования. in Library, 3(3), 235–242. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/28409>
7. Ziyayev Avaz Ixtiyorovich. The Formation of Synonymic and Variant Paradigms on the Basis of Intensification/Deintensification. Scientific Bulletin of Namangan State University 2.1 (2020): 213-219
8. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-312-318>
9. Shamaksudova S. et al. Specificity of Massmedia Aspect in Media Text Formation. Ilkogretim Online, [s. l.], v. 20, n. 5, p. 455–460, 2021. DOI 10.17051/ilkonline.2021.05.48. Disponível em: <https://research.ebsco.com/linkprocessor/plink?id=9d30e639-1017-3a08-b0b9-c13cf7171871>. Acesso em: 7 jun. 2024.

MEDIAMAKONDA KOMMUNIKATSIYA: TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR

Sevara URINBAYEVA

Adliya vazirligi

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Maqolada davlat boshqaruvi, unda jamoatchilik bilan aloqalarning o'rni, axborot xizmati faoliyati, ular orqali jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish hamda davlat boshqaruvida uning samarasini oshirishdagi roli va o'rni yoritib berilgan. Davlat organlarida ularning xalq bilan muloqot qilishida ko'prik vazifasini jamoatchilik bilan aloqalar bo'limlari bajarishi, PRning hozirgi muhim vazifalaridan biri asrning globallashtirish tendensiyasini qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlar oqimi aniq bir shaklda qurilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerakligi, uni faqatgina mutaxassislar emas, balki butun omma ham tushunishi muhimligi qayd etilgan. Ijtimoiy tarmoqning afzalligi, bugun internet – ijtimoiy tarmoqlar bilan siyosiy muloqotni o'z ichiga olgan axborot texnologiyalari vositachiligidagi aloqaning paydo bo'lgani, uning yordamida jamiyatdagi hokimiyat munosabatlari tuzilishi, zamonaviy axborot jamiyatida axborotni tarqatish vositalarining samaradorligini oshishi bilan birga, ularning kuch manbalari sifatidagi roli va ahamiyati ortib borayotgani tahlil etilgan.